

HUQUQNI QO‘LLASH ME‘YORIY AKTLARI, ULARNING XO‘JALIK
FAOLIYATINI YURITISHDAGI AHAMIYATI

Ergasheva Asila Alijonovna

Namangan davlat universiteti yuridik fakul'teti magistri

Annotatsiya: *Maqolada huquqni amalga oshirish jarayoni tushunchasi, muayyan vaziyatlarda huquq normalari*

Tadbiq etuvchi normativ huquqiy hujjatlar, hujjatlarning turlari va hormalarni huquqni qo'llash jarayonida o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Ushbu maqolada huquqni qo'llash jarayonining davlat organlari, va xo'jalik boshqaruvi organlari, sud-huquq tizimi hujjatlaridagi orni o'rganilgan xolda fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *huquqni amalga oshirish, hujjat, organlar hujjatlari, qaror, farmon, ijro akti, jamoa bo'lib qabul qilinadiga hujjatlar, shaxsga doir hujjatlar.*

Аннотация: *В статье рассматривается концепция процесса правоприменения, правовые нормы в конкретных ситуациях.*

Рассматриваются особенности реализации нормативно-правовых актов, виды документов и формы в процессе правоприменения. В статье представлены взгляды на место процесса правоприменения в документах государственных органов, органов экономического управления и судебной-правовой системы.

Ключевые слова: *правоприменение, документ, документы органов, решение, указ, исполнительный акт, коллективно принятые документы, документы, касающиеся лица.*

Annotation: *The article discusses the concept of the process of law enforcement, legal norms in specific situations*

The specific features of implementing normative legal acts, types of documents and forms in the process of law enforcement are considered. This article presents the views on the place of the law enforcement process in the documents of state bodies, economic management bodies, and the judicial and legal system.

Keywords: *law enforcement, document, documents of bodies, decision, decree, executive act, documents adopted collectively, documents relating to a person.*

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotga yangi O'zbekiston siyosati, kelajak uchun borasida inson huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar sharoitida huquq normalarini amalda xayotga tadbiq etish jarayoni hamda bu normalarni qo'llaniluvchi huquqni qo'llash aktlarinin umumiy tarkibi va elementlarini, kategoriyalarini aniqlash va ularning normativ-huquqiy hujjatlardan farqini anglash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Huquqiy islohotlar jarayonida davlatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga chiqishi, yuksak darajadagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish davlatning zamonaviy huquqiy tizimida huquqni qo‘llash jarayoni va mexanizmini isloh qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida va 2022 yil 18 martdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3666-son qarorida ham bu borada tushuntirish va uslubiy ko‘rsatmalar berilgan. Shu nuqtai nazardan Prezident normativ hujjatlari maqolamiz uchun asosiy metodologik asoslar husoblanadi.

Huquq normalarini qo‘llash nazariy metodologik bilimlari yurist oimlar va mutafakkirlar nazariyalarid asosiy o‘rin tutadi. Shu jihandan mutafakkir tarixiy shaxslar asarlaridan tushunchalar olamiz, huquqiy davlat nazariyasini falsafiy jihatdan asoslab bergan olimlardan olim V.I. Leushin, I.Kant hisoblanadi. Mamlakatimizdagi yurist olimlarimiz ham huquqni qo‘llash sohasi va uning hujjatlarini rivojlantirish bo‘yicha o‘z metodologik tushuntirishlarini bayon etganlar.

Mamlakatimiz yetuk yurist olimlari “Davlat va huquq nazariyasi”dagi fikrlariga asoslangan tushunchalar o‘rganiladi. Bu borada, huquqshunos olim Sh.Saydullayev, huquqshunos olima M.Axmedshayeva, professor Z. Islamov, X. Odilqoriyev kabi shaxslar fikrlari o‘rganiladi.

Natijalar va muhokama

Mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha soalarida olib borilayotgan islohotlarda huquqni amalga oshirish, xususan huquqni qo‘llash jarayonini takomillashtirish masalalariga katta e‘tibor qaratilib kelinmoqda.

Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, huquqni qo‘llash – huquq normalari talabini amalga oshirishning asosiy shakllaridan biridir. Huquqni qo‘llash faoliyati huquq normasini to‘la-to‘kis tatbiq etish uchun vakolatli organ yoki mansabdor shaxsning aralashuvi talab etilgan hollarda zaruriyatga aylanadi. Huquqni qo‘llash faoliyati hokimiy xarakterga hamda unda qaror tegishli organning irodasi mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Huquqni amalga oshirishda bir qancha tashkiliy-amaliy vazifalarni joriy etgan bo‘lib, unga ko‘ra respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning hududiy bo‘linmalari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida huquqni qo‘llash amaliyotini izchil va bir xilda ta‘minlash bo‘yicha choralarni amalga oshirish, shuningdek, ushbu davlat organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga yagona huquqni qo‘llash amaliyotini shakllantirishda metodik yordam ko‘rsatish hamda Adliya vazirligi zimmasiga huquqiy fanlarni rivojlantirish choralarni ko‘rish, davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq tizimi, mamlakatda huquq ijodkorligi, huquqni qo‘llash, huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish kabi chora-tadbirlar yuklandi[1].

Mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha soalarida olib borilayotgan islohotlarda huquqni amalga oshirish, xususan huquqni qo‘llash jarayonini takomillashtirish masalalariga katta e‘tibor qaratilib kelinmoqda.

Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, huquqni qo‘llash – huquq normalari talabini amalga oshirishning asosiy shakllaridan biridir. Huquqni qo‘llash faoliyati huquq normasini to‘la-to‘kis tatbiq etish uchun vakolatli organ yoki mansabdor shaxsning aralashuvi talab etilgan hollarda zaruriyatga aylanadi. Huquqni qo‘llash faoliyati hokimiy xarakterga hamda unda qaror tegishli organning irodasi mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Huquqni qo‘llash deganda vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan huquq normalarini muayyan hayotiy vaziyatlarga nisbatan tatbiq etish bo‘yicha amalga oshiriladigan davlat-hokimiyat faoliyatidir. Bu huquqni amalga oshirishning maxsus shakli bo‘lib, huquqiy munosabatlarni tartibga solish, huquqlarni ta‘minlash va javobgarlikni belgilash uchun xizmat qiladi.

Huquqni tatbiq etish uchun davlatning aralashuvi zaruriyati tugiladi, chunki busiz huquqni amalga oshirish mumkin bo‘lmay qoladi. Bir qator huquqiy munosabatlar davlat va davlat organlarining bevosita ishtiroki bilan belgilanadi. Masalan, armiya safiga chaqirish, fuqarolarning nafaqa olish huquqini amalga oshirish, sodir qilingan huquqbuzarlik uchun tegashli ta‘sir choralarini belgilash kabi faoliyat bo‘yicha tegishli davlat organlarining bu masalalar bo‘yicha huquqni tatbiq etishga qaratilgan qarori zarur bo‘ladi. Umuman olganda, davlatning huquqni qo‘llash borasidagi faoliyati jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi va qonunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Huquqni qo‘llash - ma‘lum yuridik ishlar bo‘yicha yuridik faktlar yoki muayyan huquq normalariga asoslanib, vakolatli davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan individual qarorni tayyorlash va uni qabul qilish bilan bogliq, bo‘lgan hokimlik faoliyatidir.

Huquqni qo‘llashning quyidagi belgalari mavjud:

-huquq normasini qo‘llash vakolatiga ega bo‘lgan organlar yoki mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi;

-individual xarakterga ega;

-muayyan huquqiy oqibatlarni-sub‘ektiv huquq, majburiyatlar, javobgarliklarni o‘rnatishga yo‘naltirilgan;

-maxsus belgilangan protsessual shakllarda amalga oshiriladi;

-individual harakatga ega bo‘lgan yuridik qaror chiqarish bilan yakunlanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni ta‘kidlash mumkinki, huquqiy normalarni qo‘llash davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat tashkilotlari va fuqarolar tomonidan amalga oshiriladi.

Huquq normalarini qo‘llash - murakkab jarayon bo‘lib, u o‘z ichiga quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- huquq normasi bilan tartibga solinishi lozim bo‘lgan yuridik ishning faktik tomonini o‘rganish va o‘rnatish;

- ko‘rilayotgan yuridik ishga mos keladigan huquq normasini topish, uni taxlil qilish va tatbiq etish;

- ko‘rilayotgan yuridik ish bo‘yicha yuridik kuchga ega bo‘lgan tegashli qaror, ya‘ni huquqni qo‘llash aktini chiqarish.

Bu bosqichlarda amalga oshiriladigan harakatlarning hammasi qonunchilik talablari asosida vakolatli davlat organlari, mansabdor shaxslar yoki jamoat tashkilotlari tomonidan, ularning vakolatlari doirasida olib borilishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan huquq normalarini qo‘llash bosqichlarini quyidagicha taxlil qilish mumkin:

1. Ko‘rilayotgan yuridik ishga nisbatan huquq normasini qo‘llashni talab etuvchi holatning faktik tomonini o‘rganish va o‘rnatish uchun dastlab huquq normasi qo‘llanilayotgan ish yuridik ahamiyatga egami, shu masalani hal etishda huquq normasini qo‘llamasdan ham (masalan, ijtimoiy normalar: axloq yoki odob normalari asosida) hal etish mumkinmi degan masalani ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi. Bu masalani yechish uchun amaldagi qonunlar bilan yaxshi tanish bo‘lish talab etiladi. Agar ko‘rilayotgan ish yuridik xarakterga ega bo‘lsa, uning faktik holatlari sodir qilinganda, masalan, jinoyatni sodir qilgan shaxs, jinoyat sodir etilgan vaqt, joy va uning qanday usulda amalga oshirilganligi, jinoyat tufayli kelib chiqqan oqibatlar, ayblilik darajasi (xarakteri - qasddan yoki ehtiyotsizlikdan) va boshqa holatlar; fuqarolik huquqiy nizolar kelib chiqqanida bitim tuzish holatlari, uning mazmuni, bu bitimni bajarishga qaratilgan harakatlar, tomonlarning o‘zaro da‘volari kabi holatlar huquq normalarini qo‘llash zarur bo‘lgan yuridik ishning faktik holatlari bo‘lib hisoblanadi. Odatda faktik holatlar o‘tmishda ro‘y bergan bo‘ladi, shuning uchun huquqni qo‘llovchi bu holatlarni bevosita o‘zi kuzata olmaydi. Bu faktik holatlar o‘tmishda ro‘y bergan holatlarni o‘zida ifoda (aks) ettirgan moddiy va nomoddiy dalillar (guvohlarning ko‘rgazmalari, ekspert xulosalari, voqea sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomalari va boshqalar) yordamida aniqlanadi.

2. Huquq normalarini qo‘llashning ikkinchi bosqichi - ko‘rilayotgan ishga mos keyaadigan huquq normasini tanlash va taxdil qilishdir. Agar ishning birinchi bosqichida ko‘rilayotgan ish yuridik xarakterga ega bo‘lgan huquq normalarini talab etadi degan xulosaga kelinadigan bo‘lsa, shu ishni olib borayotgan shaxs, barcha huquq normalari orasidan mazkur ishga mos keyaadigan tegashli huquq normasini tanlab olishi va shu ko‘rilayotgan ishda uni qo‘llashi lozim. Buning uchun esa, u avvalo, mazkur norma matnining haqiqiy ekanligiga, bu norma o‘zgarishsiz va o‘z kuchini yo‘qotmasdan hozirgi kutsda ham amal qilish kuchiga ega ekanligiga to‘la ishongan bo‘lishi kerak.

Aniqlangan faktik holatlarni yuridik baholashning mohiyati, ya‘ni ularni yuridik kvalifikatsiya qilish shuni anglatadiki, bunda ko‘rilayotgan hodisalarni tartibga solish uchun aynan zarur bo‘lgan huquq normasini izlab topish va tanlash lozim bo‘ladi. Ko‘rilayotgan ish bo‘yicha faktik holatlar va yuridik faktlar aniqlanganidan keyin, qo‘llanishi ko‘zda tutilgan huquq normasining gapotzasiga ushbu holatlarning mos kelishi yoki kelmasligi o‘rganiladi va taqqoslash asosida bu ish yuridik baholanadi (kvalifikatsiya qilinadi). Amaldagi qonunchilik ko‘rilayotgan ishni hal qilishda shu kunda kuchda bo‘lgan huquq normalari asosida ish olib borish va aynan shu normalar asosida qarorga kelish lozimligani talab qiladi. 3. Huquq normasini qo‘llashning uchinchi bosqichi huquqni qo‘llaydigan organ va tashkilot tomonidan, shuningdek huquqni qo‘llovchi mansabdor shaxs tomonidan qaror

25-Aprel, 2026-yil

qabul qilinishi yoki huquq normasini qo‘llanish aktlarini chiqarishdir. Bu aktda huquq normasi sharxdangan mazmunga mos-lashtirilgan aniq ish, fakt va munosabatning hal etilishi o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Ko‘rilayotgan ish bo‘yicha qaror chiqarish vaqtida, bu qarorning qo‘llanilayotgan huquq normasining dispozitsiyasi yoki sanksiyasi talablariga mos kelishkelmasligiga e‘tiborni qaratish lozim.

Hulosa

Hulosa o‘rnida keltirish mumkinki, ish bo‘yicha qaror qabul qilishning quyidagi ikki jihatini ko‘rish mumkin: -Birinchidan, bu aqliy faoliyat bo‘lib, u o‘z ichiga ish bo‘yicha to‘plangan dalillarni baholash asosida bo‘lib o‘tgan hodisa (voqea) to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishni, uni yuridik baholash (kvalifikatsiya)ni, tomonlar yoki aybdor uchun yuridik oqibatlarini, tomonlarning huquq va majburiyatlarini, aybdorning javobgarlik darajasini belgalashni va hokazoni o‘z ichiga qamrab oladi. -Ikkinchidan, bu ish bo‘yicha qabul qilingan hujjat - huquqni qo‘llanish aktini chiqarishni nazarda tutadi. Bu aktda yuridik ishni hal etish bilan bog‘liq bo‘lgan akdiy faoliyatning natijasi o‘z ifodasini topib, unda konkret shaxs uchun yuridik oqibat kelib chiqish masalasi rasman o‘z aksini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “O‘zbekiston Respublikasida Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 18.03.2022. PQ-3666-son.
2. Islomov. Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: Adolat. 2007. – 916b.
3. Леушин В.И. Реализация и применение права. Юридический процесс // Теория государства и права. - М.: Норма. 2012. - С.402
4. Малько А.В. Проблемы правовых средств. / Проблемы теории государства и права. – М.: Юристь. 2016. – С.3